

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТА'ЛИМИЙ ФАОЛИЯТНИ  
ТАШКИЛ QILISHDA VA RIVOJLANISH MARKAZLARINING O'RNI**

Navoiy viloyati Navbahor tumani DMMT-7 tarbiyachisi

**Xalilova Nozima Xolmumin qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolaning rivojlanish markazlardagi faoliyati jarayoni hamda markazlarda o‘yin orqali faoliyat davomida kutilayotgan natijaga erishish yo‘llari yoritib berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** Markaz, bilim, tarbiya, rivojlanish, bolalar, bilish jarayoni, takomillashtirish, texnologiya, malaka, jarayon, rivojlanish, usullar.

**Аннотация:** В статье описывается процесс деятельности ребенка в центрах развития и пути достижения ожидаемых результатов в ходе деятельности через игру в центрах. Педагоги дошкольных образовательных организаций играют ключевую роль в реализации целей дошкольного образования.

**Ключевые слова:** Центр, знания, образование, развитие, дети, познавательный процесс, совершенствование, технология, навыки, процесс, развитие, методы.

Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san’at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan o‘zi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo‘lakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma’qul ko‘radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarmi kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtidan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish

tufayli bola yaxshi sur'atda o'sib-ulg'ayishi mumkin. Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, Masalan, "Til va Nutq" markazi: bunda biror bir qutichaga mashg'ulotga mos rasmi li kartochkalar solinib, bolalar ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, birin-ketin quti ichidan kartochka tanlab olib, rasmiga mos hikoya tuzadi yoki she'r aytadi. "Qurish-yasash va matematika" markazi: bunda bolajonlar markazdagi geometrik shakllardan, lego va konstrukturalardan foydalanadilar, shu bilan birga guruhda o'rtaga doira chizib, bolalar ham chizilgan doira bo'y lab turishadi. So'ngra biron bir raqam tanlanadi, masalan: 10 raqami. Bolalardan 10 tasi doiraga kiradi va 10-2 deyiladi, shunda bolalardan ikkitasi doiradan chiqishadi.

### ***Rivojlanish markazlari tasnifi va ularning o'ziga xosligi:***

Rivojlanish markazlaridagi ta'lif jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin. "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lif tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurilish va konstruksiyalash markazi
- Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi
- Til va nutq
- Ilm-fan va tabiat markazi
- San'at markazi
- Musiqa va ritmika markazi

Rivojlanish markazlarining mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlargacha, milliy an'analarga, tabiat va iqlim bilan belgilanadigan xususiyatlarga mos kelishi kerak.

- Rivojlanish markazlarining mazmuni atrof-muhit haqidagi dastlabki g'oyalarning asoslarini yaratishi, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam berishi lozim.
- Rivojlanish markazlari bolaning ehtiyojlari va manfaatlariga xizmat qilishi kerak.
- Rivojlanish markazlarini tashkil etishda bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish.
- Rivojlanish markazlarini tashkil etishda bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish.

Rivojlanish markazlari shunday tashkil etilganki, bu yerda har bir bola yoqtirgan vazifasini bajarish imkoniga ega. Markazlarda jihozlarni joylashtirish bolalarning umumiyligini qiziqishlariga ko'ra kichik guruhlarga bo'linib olishiga imkon beradi (qurilish, chizish, qo'l mehnati, teatr va o'yin faoliyati, tajriba-sinov va h.k.).

Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni,

shuningdek o‘z o‘zi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Tematik rejalashtirishga ko‘ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o‘yin uskunalarini bilan ta’minlash ustida o‘ylashi va to‘ldirishi kerak. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorланади va jihozланади. Bolaning rivojlanishi faqat o‘quv faoliyatida emas, balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materialarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo‘lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi.



**Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:** har xil qurilish to‘plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o‘ynash uchun didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallarlari.



**Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi:** teatrning barcha turlari uchun atributlar va o‘yin materiallarlari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o‘yinlari, shlyapalar - maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do‘kon" o‘yinlari atrebutlari.



**Til va nutq markazi:** didaktik o‘yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy

materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko‘ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik al’bomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to‘plami, "Rasmlli Alifbo" kubiklari.



**Ilm, fan va tabiat markazi:** atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallarlar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarlarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallarlar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.



**San’at markazi:** tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan al’bomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

**Kutilayotgan natijalar:** Pedagogning rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat jarayonidan keng foydalanishi natijasida quyidagicha ijobiy samaradorligiga erishish mumkin.

### Masalan:

- tarbiyalanuvchilarni erkin vaqtini maroqli va mazmunli o‘tkazishga ;
- tarbiaylanuvchilarni mustaqil harakat qilishga va jamoa bilan ijtimiyashuvini ta’minalashga ;
- tarbiaylanuvchilarni o‘ziga nisbatan ishonch uyg’otish hamda o‘z ishini faxrlanish tuyg’ularini uyg’tishga;
- pedagog faoliyati jarayonida rivojlantiruvchi muhitini ta’minalashga;

- mashg'ulotlar uchun ajratilgan vaqtini amaliy va samarali o'tkazishga;
- mashg'ulotlarni "o'yin" tarzida olib borishga;
- O'qitishning motivatsiyasini kuchaytirishga;
- Bolalarni turli ko'rinishidagi faoliyat turlariga jalg qilishga;
- Fikrlash, mulohaza qilish va bahslashishga;

**Xulosa qilib aytganda**, bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar orqali bolajonlarimizning har bir kuni, har bir soati qiziqarli va maroqli o'tadi. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirib, har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, biz bo'lajak tarbiyachilarining ustuvor vazifalarimiz sanaladi. Ayniqsa "syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazida bolalarning ijodiy faoliyati va ijodiy qobiliyatları juda yaxshi rivojlanib boradi. Teatrlashtirilgan faoliyat madaniy hordiq faoliyatiga tushiradi va bolalar bilan olib boriladigan faoliyatda ustuvor o'rin egallaydi. U bolalar bilan muloqotning yangi shakllarini realizatsiyalash, har bir bolaga yakka tartibda yondashish, oila bilan o'zaro hamkorlikning noan'anaviy yo'llarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil.
2. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil.
3. A.N.Abdullayev. "Innovations in the field of pedagogical technologies of teaching in technical higher education institutions" Republic-wide scientific and technical conference on "Modern research, innovations, current problems and development trends of techniques and technologies"